

MARKETING



ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

MARKETING
INNOVATSIYA
BRENDING
SAVDO
RAQAMLI
TADQIQOT
BIZNES



№5 - SON

2025-YIL, MAY

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Elektron nashr 582 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 31-mayda ruxsat etildi

MUNDARIJA

ASSESSMENT OF E-COMMERCE’S ROLE IN ECONOMIC DEVELOPMENT	8
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, Karimova Shirin Zoxid qizi, Sodiqova Dilafruz Zoxid qizi	
BIG DATA И АНАЛИТИКА ДЛЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МОНИТОРИНГА	26
Маликов Шохрух Шокирович	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHDA USTUVOR ILMIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR	36
Nurimbetov Ravshan Ibragimovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIK VA “YASHIL” IQTISODIYOT UYG‘UNLIGIDA “YASHIL” EKSPORT MODELINI JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI	46
Muratova Shohista Nimatullayevna	
QISHLOQ VA SHAHARLARDA ZAMONAVIY SAVDO SHAHOBCHALARINI RIVOJLANISHI VA ULARDA XIZMAT KO‘RSATISH MADANIYATINI OSHIRISHDA MARKETING TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	55
Soliyeva Gulbahor Axmadjanovna	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОГО ОБМЕНА МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ	62
Мухитдинов Алим Изатуллаевич, Халилова Нодира Абдухамид кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENT YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	77
Saidqulova Firuza Farmonovna	
TO‘QIMACHILIK SANOATIDA EKSPORT MARKETINGI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	84
Bazarova Fayyoza Tuxtamurodovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA INNOVATSION MENEJMENTNI O‘RNI	91
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
MARKETINGDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA TAHDIDLARI	102
Jo‘rabayev Ibragim	
O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISHI VA UNING AHAMIYATI	109
Jo‘rayeva Gulzira Ilhomjon qizi	
NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH	116
Karimjanova Ra’noxon Maxmudovna	

SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOXITIDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ixomovna, Usmanov Shaxzod Shoxruxovich	
SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	135
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТРАНСФОРМАЦИИ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ	142
Солиева Гулбахор Ахмаджановна	
LOYIHA BOSHQARUVIDA QO‘LLANILADIGAN USULLARNING TURLARI VA TAVSIFI.....	150
Po‘latov Shahron Axmedovich	
O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA BIOMAHSULOTLAR YETISHTIRISHNING HOLATI VA IQTISODIY SALOHİYATI.....	162
Soliyev Damirjon Nurmatovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH OMILLARI.....	168
Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich, Baxtiyorov Barhayotjon Azizjon o‘g‘li	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФИНАНСОВОГО ПОВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОНТЕКСТ	174
Захарова Ирина Борисовна, Непейвода Андрей Николаевич	
“AN IN-DEPTH ANALYSIS OF CRITERIA FOR EVALUATING THE BUSINESS STABILITY OF INDUSTRIAL AND ENERGY ENTERPRISES: A COMPREHENSIVE CASE STUDY OF JV UZCHASYS’ LLC”	182
Mahsudov Muzaffar Ikromjon ugli	
QORAQALPOG‘ISTONDA MEHMONXONA XO‘JALIGINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	188
Uralova Matlyuba	
O‘ZBEKISTON QURILISH SANOATIDAGI IQTISODIY ISLOHOTLAR: HOLAT VA RIVOJLANISH STRATEGIYALARI.....	194
Saidov Mash‘al Samadovich, Karimov Inomjon Ortikbaevich	
DIGITAL MARKETING FOR THE GREEN ECONOMY: TRENDS AND INNOVATIONS	206
Salayeva Quvonchoy Rustam qizi	
BLOKCHAYN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA QIYMAT YARATISH RAQAMLI ZANJIRLARINI SHAKLLANTIRISH	214
Samadov Sevinchbek Dusbobo o‘g‘li	
MOSLASHUVCHAN (AGILE) VA YASHIL MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNI ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	224
Umarov Bexzod Batirovich	

MINTAQA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	232
Masharipova Manzura Alimbayevna	
TELEVIZYON REKLAMALARIDA RATSIONAL JOZIBADORLIK ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH.....	239
Safarov Alisher Yunusaliyevich	
RAQAMLI MARKETING VOSITALARIDAN B2B BOZORIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	250
Samadov Askarjon Nishonovich, Shovdirov Toxirmalik Nafasovich	
MENEJMENT FANIDA BOSHQARUV MODELLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI.....	262
Toshimov Azizbek Hakimovich	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BREND QIYMATINI YARATISHNING KONSEPTUAL JIHATLARI	270
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR OQIMLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI VA YONDASHUVLARI	278
Nasritdinova Gulchexra Abdurashitovna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI HIMOYALASHDA RISKLARNI BOSHQARISH YO'LLARI	288
Absamatov Anvar Ergashevich	
TIJORAT BANKLARIDA DIVIDENT SIYOSATINING NAZARIY ASOSLARI.....	296
Aliyev G'ulomnozir Maxamatjonovich	
O'ZBEKISTON METEOROLOGIYA XIZMATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	304
Anvarova Muqaddas Mahammadjanovna, Abduganiyeva Mavjuda Asattulayevna	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLİYAVIY XIZMATLARIDAN FOYDALANISHNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	311
Babamatov Tolib Hakimovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA MARKETING STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RAQOBATDOSHLIKNI OSHIRISH OMILLARI	318
Baxtiyor Negmatovich Navruz-zoda, Nazarova Gulruh Umarjonovna	
FARMASEVTIKA MAHSULOTLARI BOZORIDA KOMPANIYANING MIJOZLAR BILAN MUNOSABATLARINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	326
Bobojonov Baxrombek Ruzimovich	
MAHALLIY VA XORIJIY TURISTLAR UCHUN O'ZBEKISTONDA ALTERNATIV TURIZM TURLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	334
Egamnazarov Khusniddin	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF IMPLEMENTING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS.....	347
Shoakhmedova Nozima Khairullaevna, Yusupova Dilbar Mirabidovna	

QISHLOQ XO‘JALIGI BUXGALTERIYASIDA BIOLOGIK AKTIVLARLARNI TAN OLISH MEZONLARI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI.....	353
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
TIJORAT BANKLARI VALYUTA OPERATSIYALARI VA ULARNING TASNIFLANISHI	362
Yusupov Aziz Shuhratovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ УПРАВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИМИ ОТХОДАМИ В СИСТЕМЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ И САНИТАРНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ.....	369
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
RAQAMLI CRM TEXNOLOGIYALARINING XORIJIY AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTON BIZNES MUHITIDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI	380
Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi	
COST OF CAPITAL. AS A CASE OF UZBEKISTAN COMPANY	391
Khurshid Khudoykulov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI.....	399
Musaxonov Rustam Musaxon o‘g‘li	
KORXONA MAHSULOTLARI ELEKTRON SAVDOSINI BOSHQARISH STRUKTURASI	406
Tuychiyev Shavkatjon Shokirali o‘g‘li, O‘ktamov Xamidillo Xabibillo o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVLARINI RAQAMLIGA O‘TKAZISH: TAJRIBASI VA ISTIQLABLARI.	414
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
ELEKTRON TIJORATDA MIJOZGA YO‘NALTIRILGAN MARKETING STRATEGIYALARI	419
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich	
INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RAG‘BATLANTIRISH: JAHON TAJRIBASI TAHLILI	429
Hulkar Turobova, Shahlo Musulmonova	
TAX DISCIPLINE AND ITS INFLUENCE ON FINANCIAL SECURITY	441
Shamsiddin Allayarov Amanullaevich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA STRATEGIK MENEJMENTNING SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING SKORING TIZIMI	450
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ВЫСШИМИ УЧЕБНЫМИ ЗАВЕДЕНИЯМИ	460
Бадалова Лола Борисовна	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ МАРКЕТИНГА В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ СТОИМОСТЬЮ КОМПАНИИ	468
Уралов Акбарали Бабаназарович	
STAGES OF FOOD BRAND FORMATION IN THE FOOD MARKET	478
Eshmatov Sanjar Azimkulovich	

ONLAYN SAVDO MAYDONCHALARIDA TOVARLAR SAVDOSINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINI SAMARALI QO‘LLASH USULLARI	489
Baxromov Xudoyor Xabibullo o‘g‘li	
ULGURJI SAVDODA MARKETING LOGISTIKASINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	497
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	
MOLIYAVIY XAVFSIZLIK SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK VA UNING SAMARADORLIGI.....	511
Axmedov Bexzod Shuxratovich	
MAMLAKATDA RAQAMLI XIZMATLARNI RIVOJLANISHI VA UNING HUQUQIY VA IJTIMOY-IQTISODIY ASOSLARI	518
Xakimdjanova Dildora Kamilevna	
XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	529
Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi	
MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O‘TKAZISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	535
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
INNOVATSION RIVOJLANISH VA RAQAMLI IQTISODIYOT: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR	541
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o‘g‘li, Ollayorov Behruzbek Sardor o‘g‘li	
MAMLAKATIMIZDA INVESTITSION JOZIBADORLIGI YUQORI BO‘LGAN HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI.....	547
Astanov Sherzod Rustamovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BOSHQARUV QARORLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA QIYMATGA ASOSLANGAN BUDJETLASHTIRISH TIZIMINI TASHKIL ETISH	556
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
MILLIY TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI RAQOBATBARDOSH QILISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA STRATEGIYALAR	564
Rixsiboyev Nozimbek Abdurasul o‘g‘li	
MINTAQA IQTISODIY TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	571
Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna	

MAMLAKATDA RAQAMLI XIZMATLARNI RIVOJLANISHI VA UNING HUQUQIY VA IJTIMOYIY-IQTISODIY ASOSLARI

Xakimdjanova Dildora Kamilevna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU,
“Menejment va marketing” kafedrası
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda raqamli xizmatlarning rivojlanish bosqichlari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy asoslari tahlil qilingan. Xususan, raqamli infratuzilmaning shakllanishi, elektron imzo tizimi, davlat xizmatlarining avtomatlashtirilishi va "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" faoliyatining natijalari asosida iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari yoritilgan. Maqolada mavjud huquqiy-me‘yoriy hujjatlar va statistik ma‘lumotlar asosida xizmat ko‘rsatish tizimining raqamlashtirish orqali rivojlanish jarayoni va uning ijobiy natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, moliyaviy barqarorlik, aholi ishonchi va qo‘shilgan qiymat o‘sishi kabilar orqali raqamli transformatsiyaning ustuvorliklari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli xizmatlar, elektron hukumat, huquqiy asos, infratuzilma, transformatsiya, iqtisodiy samaradorlik, qo‘shilgan qiymat.

Аннотация

В данной статье анализируются этапы развития цифровых услуг в Узбекистане, их социально-экономические и правовые основы. Особое внимание уделено формированию цифровой инфраструктуры, системе электронной подписи, автоматизации государственных услуг, а также результатам деятельности Центра управления проектами "Цифровое правительство". На основе нормативно-правовых актов и статистических данных рассмотрен процесс цифровизации системы обслуживания и её положительное влияние. В статье также подчеркиваются преимущества цифровой трансформации через такие показатели, как финансовая стабильность, доверие населения и рост добавленной стоимости.

Ключевые слова: цифровые услуги, электронное правительство, правовые основы, инфраструктура, трансформация, экономическая эффективность, добавленная стоимость.

Abstract

This article explores the development stages of digital services in Uzbekistan, focusing on their socio-economic and legal foundations. Particular emphasis is placed on the formation of digital infrastructure, the implementation of electronic signature systems, the automation of public services, and the results of the "Digital Government Project Management Center." Based on legal frameworks and statistical data, the study analyzes the process of service digitalization and its positive outcomes. The article also highlights the strategic advantages of digital transformation through indicators such as financial stability, public trust, and growth in value added.

Keywords: digital services, e-government, legal framework, infrastructure, transformation, economic efficiency, value added.

KIRISH

Iqtisodiyotning tezkor o'zgarishlar sharoitida xizmatlar faoliyatini tartibga solish, ularning qonuniy asoslarda amalga oshirilishini ta'minlash va bu jarayonni raqamli xizmatlar ko'rinishida integratsiyalash, mavjud axborot resurslaridan oqilona va tizimli foydalanish orqali kelajakni barqaror rejalashtirish imkonini yaratadi. Bu esa raqamli transformatsiyaning strategik ahamiyatini yanada kuchaytiradi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish har qanday mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki samarali boshqaruv orqali resurslardan oqilona foydalanish, xizmatlarning tezkorligi va sifatini oshirish, fuqarolar ehtiyojlariga javob berish imkoniyati yaratiladi. Ammo bu jarayon raqamlashtirilgan holda amalga oshirilganda, uning samaradorligi va ahamiyati yanada oshadi. Xizmatlarni rivojlanishi raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali o'z vaqtida va aniq bajarilishini ta'minlash, shaffoflikni oshirish va insoniy xatoliklarni minimallashtirishga imkon beradi. Masalan, oddiy xizmatlarni boshqarishda ma'lumotlar qo'lda qayta ishlansa, raqamli boshqaruvda katta ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt orqali tahliliy qarorlar qabul qilinadi, bu esa nafaqat jarayonlarni tezlashtiradi, balki ularning sifatini ham yuqori darajaga olib chiqadi. Bundan tashqari, raqamli boshqaruv xizmatlar inklyuzivligini oshiradi, chunki u chekka hududlarda yashovchi aholiga masofaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli, xizmatlarni boshqarish mamlakatning rivojlanishi uchun zarur bo'lsa, ularni raqamlashtirilgan holda boshqarish bu rivojlanishni yanada tezlashtiradigan vositaga aylanadi. Raqamli xizmatlarni boshqarish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki davlat va fuqarolar o'rtasida ishonchni mustahkamlaydi, bu esa zamonaviy boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida yanada katta ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, xizmatlarni boshqarish muhim bo'lgan taqdirda, ularni raqamlashtirish orqali boshqarish mamlakat iqtisodiyoti va jamiyatining har tomonlama barqaror rivojlanishi uchun ustuvor omilga aylanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli texnologiyalar va raqamli xizmatlarning iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri global miqyosda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda bir nechta ilmiy tadqiqotlar muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Cruz-Jesus F. va boshqalar [1] tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda davlatlarning raqamli rivojlanishi va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilingan. Ular raqamli transformatsiya darajasi yuqori bo'lgan davlatlarda iqtisodiy barqarorlik va innovatsion faollik yuqori ekanini aniqlagan. Bu holat O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun raqamli xizmatlarning strategik ahamiyatini ko'rsatadi.

Mergel I. [2] o'z tadqiqotida davlat boshqaruvida raqamli xizmatlar jamoalarining o'rni va ularning xizmat ko'rsatish sifatiga ta'sirini o'rganadi. Muallif raqamli

jamoalarning moslashuvchanligi, innovatsion salohiyati va tezkor yechimlarni taqdim etish qobiliyati orqali davlat xizmatlarini soddalashtirishdagi rolini asoslaydi.

Zhang X. va Wang Y. [3] raqamli texnologiyalar va siyosiy cheklolarning raqamli xizmatlar savdosiga ta'sirini empirik modellar asosida tahlil qilgan. Ularning natijalariga ko'ra, siyosiy barqarorlik va texnologik innovatsiyalar raqamli xizmatlar eksportini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Pazarbasioglu C. va boshqalar [4] esa Jahon Banki doirasida raqamli moliyaviy xizmatlarning kengayishi, moliyaviy inklyuzivlik va iqtisodiy imkoniyatlarga ta'siri haqida chuqur tahlil beradi. Ular raqamli to'lov tizimlari orqali iqtisodiy faollikni rag'batlantirish imkoniyatlarini ko'rsatgan.

O'zbekiston kontekstida Kenjabaev A.T. va boshqalar [5] tomonidan tayyorlangan o'quv qo'llanmada elektron biznesning nazariy asoslari, uning iqtisodiyot tarmoqlariga integratsiyasi va raqamli vositalardan foydalanish mexanizmlari bayon etilgan. Ushbu asar raqamli xizmatlarning lokal sharoitdagi evolyutsiyasini tushunishga yordam beradi.

Kopachev A.A. (2009) va Poerov A.S. [6] tadqiqotlari Rossiya misolida elektron tijoratning infratuzilmasi, huquqiy bazasi va amaliy yechimlarini o'rganib, ularning iqtisodiy innovatsiyalarni rivojlantirishdagi rolini ta'kidlaydi.

Samoylov A.M. [7] elektron tijoratning zamonaviy biznesdagi funksional rolini, uning xizmatlar sektoriga kiritgan yangiliklarini va transformatsion o'zgarishlarni kompleks ko'rinishda yoritadi.

Teriz N. [8] esa elektron savdoning xalqaro savdo va bandlikka ko'rsatadigan ta'sirini empirik ravishda tahlil qilib, global elektron xizmatlar bozori qanday o'sayotganini asoslaydi.

Umuman olganda, yuqoridagi ilmiy manbalar raqamli xizmatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tizimlarga ta'sirini har tomonlama yoritadi. O'zbekiston tajribasi esa ushbu nazariy va amaliy yondashuvlar bilan uyg'unlashgan holda raqamli boshqaruv modelini shakllantirish jarayonida ekanini ko'rsatadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda xizmatlar sohasi raqamlashtirilishining ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy asoslari tizimli tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, hukumat qarorlari va statistik ma'lumotlar asosida raqamli xizmatlar joriy etilishi jarayoni tahlil qilindi. Taqqoslama таҳлил – turli yillarda xizmatlar sohasi qo'shilgan qiymatining o'sishi va raqamli infratuzilma rivojlanish ko'rsatkichlari o'zaro solishtirildi. "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" faoliyatiga oid moliyaviy va statistik ma'lumotlar orqali natijaviylik darajasi baholandi. Ushbu yondashuvlar asosida raqamli xizmatlarning mamlakat taraqqiyotiga ta'siri tizimli tarzda ochib berildi va tegishli xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatda barcha soha va tarmoqlarda raqamli transformatsiyani amalga oshirish chora-tadbirlarini rejaga muvofiq bajarilishi uchun korxonalarining raqamli faoliyatini yo'lga qo'yishda hukumatning raqamli infratuzilmasi muhim sanaladi. Bu

masala O'zbekistonda ham o'zining ahamiyatini va nechog'lik yuqori darajadagi e'tibor markazida bo'lishini namoyon etdi. Buning natijasida, dastavval O'zbekiston Respublikasining 2003-yilning 11-dekabrida "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi O'RQ-793-sonli Qonuni"¹ qabul qilindi. Mazkur qonun raqamlashtirishda ishonch, shaffoflik hamda operativlikni amalga oshirish orqali korxona va tashkilotlarning o'zaro hamkorlik faoliyatini olib borish, mexanizmlarni faollashtirish hamda samarali yo'llarini strategik boshqarish maqsadida qilingan ilk qadam bo'lgan.

Korxona va tashkilot rahbarlarining elektron raqamli imzolariga o'tish bosqichidan so'ng, infratuzilmani takomillashtirish va eng muhim moslashtirish zarurati yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yilning 16-sentyabr sanasida "Elektron raqamli imzodan foydalanish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to'g'risida"gi 215-sonli qarori qabul qilindi"², Mazkur qaror huquqiy asoslar yanada o'zining ishonchliligini hamda nazorat qilinishini namoyon etdi. Endilikda uning ommalashuvini takomillashtirish hamda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish borasida keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, logistika va avtomobilsozlik sohasida bu holatni kuzatishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 22-dekabrdagi "Avtomobilda xalqaro yuk tashiydigan avtotransport vositalariga raqamli nazorat qurilmalarini joriy etish to'g'risida"gi 340-sonli qarori orqali texnologik vositalarning raqamlashtirish transformatsiyasi amalga oshirilishi boshqa soha va tarmoqlarda o'z ta'sirini ijobiy jihatdan ko'rsatgan.

Raqamlashtirish sharoitiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida uning nazorat bilan bog'liq huquqiy-me'yoriy asoslari yo'riqnoma sifatida xizmat qilishi maqsad qilib belgilandi va O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi boshlig'ining 2012-yilning 26-mart sanasida 2346-ro'yxat raqami ostida "Raqamli nazorat qurilmalaridan foydalanish to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi buyrug'i"³ qabul qilingan. Mazkur hujjat raqamli texnologik vositalarni amaliy qo'llash, unga baho berish salohiyati hamda undan foydalanish darajasi keskin oshishiga turtki bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yilning 3-aprel sanasida "O'zbekiston Respublikasida yer usti raqamli teleko'rsatuv tarmog'ini rivojlantirish uchun Yaponiya xalqaro hamkorlik banki va Yaponiya tijorat banklarining imtiyozli kreditini jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2157-sonli Qarori raqamli infratuzilmani mustahkamlash maqsadida amalga oshirildi. 2015-yilga qadar amalga oshirilgan chora-tadbirlar mamlakatdagi mavjud korxona va tashkilotlarni raqamli xizmatlarga o'tish jarayonini tezlashtirish uchun namuna bo'lib xizmat qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yilning 13-noyabrida 2727-

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-64467>

² <https://lex.uz/uz/docs/-849713>

³ <https://lex.uz/uz/docs/-1987035?query=raqamli#sr-1>

ro'yxat raqamli "Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda tijorat banklari tomonidan ko'rsatiladigan barcha turdagi xizmatlarda elektron raqamli imzodan foydalanish qoidalarini tasdiqlash haqida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yilning 2-avgustidagi "Elektron tijorat platformalar va raqamli ekotizim operatorlarining-axborot vositachilarining faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 249-sonli Qarori"¹ qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 21.11.2018 yildagi PQ-4022-son. https://lex.uz/docs/-4071219	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 03.07.2018 yildagi PQ-3832-son. https://lex.uz/acts/-3806053	O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 13.12.2018 yildagi PF-5598-son. https://lex.uz/docs/-4103415	O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 10.05.2018 yildagi 348-son. https://lex.uz/docs/-3730168	Davlat xizmatlari markazlari yoki onlayn tarzda (masofadan turib) rasmiy axborot resurslari orqali elektron raqamli imzo kalitini ro'yxatga olish va elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash haqida
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 18.05.2019 yildagi PQ-4321-son. https://lex.uz/uz/docs/-4344411	Raqamli iqtisodiyot va "Elektron hukumat" tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.09.2019 yildagi 833-son. https://lex.uz/uz/docs/-4532742	"Raqamli transformatsiya markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyatining elektron kooperatsiya portalida axborotni joylashtirish va xaridlarni amalga oshirish tartibini tasdiqlash to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.03.2020 yildagi PF-5953-son	2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 16.07.2020 yildagi 443-son	"Raqamli Toshkent" kompleks dasturi doirasida Toshkent shahrining geografik axborot-tahlil tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son	"Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.12.2021 yildagi PQ-42-son	Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.07.2021 yildagi 475-son	Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.05.2023 yildagi PQ-162-son	Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida

1-rasm. Raqamlashtirish va raqamli xizmatlarga doir asosiy me'yoriy-huquqiy asoslar²

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-3014802?query=raqamli#sr-1>

² <https://lex.uz/uz/search/nat?query=raqamli&searchtitle=raqam>

2018-yilda raqamlashtirishga katta e'tibor bergan holda uning asosida 5 ta me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va ular 1-rasmda aks etgan.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarining dastlabki davridanoq raqamli texnologiyalar, vositalar, shart-sharoit, muhit-umumiy qilib izohlaganda infratuzilmasi uchun jami 101 ta me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan, ulardan 12 tasiga o'zgartirish kiritilgan. Ularing barchasi fundamental iqtisodiy asos sifatida raqamli xizmatlarni ko'rsatishda katta xizmat qilgan. Uning so'nggi 10 yil davomida xizmat ko'rsatish faoliyatida rivojlanib borishi natijasida soha va tarmoqlarda qo'shilgan qiymat sezilarli darajada oshdi (1-jadval).

Mamlakatda "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" DM ning Vazirlar Mahkamasi qaroriga asosan 2017-yilda tashkil topgan bo'lib, uning asosiy yo'nalishlari sifatida "raqamli hukumatni rivojlantirishda yagona texnologik yondashuvni ta'minlash, davlat organlari va tashkilotlarida raqamli rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish va ijro intizomining yagona idoralararo elektron tizimini joriy etish, shuningdek, raqamli hukumat sohasidagi loyihalar va dasturlarni amalga oshirish bosqichlarini muvofiqlashtirish"¹ sanaladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi roli sezilarli darajada oshdi. 2020-yilda xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati 259,242 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib ikki barobardan ko'proqqa o'sib, 527,245 milliard so'mga yetdi. Bu o'sish mamlakatda xizmatlar ko'rsatish tizimining takomillashib borayotganidan dalolat beradi. Xizmatlar sohasi qamrovining kengayishida "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi"ning raqamlashtirishga oid loyihalari muhim rol o'ynadi. Tarmoqlarning umumiy qo'shilgan qiymati hajmi ham ushbu davrda 623,676 milliard so'mdan 1,137,526 milliard so'mga oshdi, bu esa davlatning raqamli infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarining samarasini ko'rsatadi.

1-jadval

Mamlakatda soha va tarmoqlarning xizmat ko'rsatish faoliyatining qo'shilgan qiymat hajmi, mlrd.so'm²

	2020	2021	2022	2023	2024
Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati hajmi	25924 2	32092 8,3	41356 5,8	52724 5,3	30357 2,3
Tarmoqlarning qo'shilgan qiymat hajmi	62367 6,5	76854 3,8	93579 4,8	11375 26	60781 9,6
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi	64009, 6	82928, 3	10832 2,7	14011 9,8	74676, 4
Boshqa xizmat tarmoqlarining yalpi qo'shilgan qiymati hajmi	15403 4,1	18593 4,4	24023 2,2	30132 7	18054 5,3
Tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlarining yalpi qo'shilgan qiymati hajmi	41198, 2	52065, 6	65011	85798, 6	48350, 6

¹ <https://e-gov.uz/uz/about>

² Muallif ishlanmasi

Savdo, yashash va ovqatlanish xizmatlari sohasida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. 2020-yilda ushbu tarmoqning yalpi qo'shilgan qiymati 64,009 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib, bu ko'rsatkich 140,119 milliard so'mga yetdi. Ushbu o'sish davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan bog'liq. Ayniqsa, elektron savdo platformalari, mehmonxonalar uchun onlayn rezervatsiya tizimlari va raqamli to'lov xizmatlarining keng joriy etilishi ushbu sektorga yangicha dinamikani olib keldi. Bunda "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" tomonidan amalga oshirilgan raqamli yechimlar xizmatlarni ko'rsatuvchi korxonalarning samaradorligini oshirishga yordam berdi.

Tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlarining yalpi qo'shilgan qiymati 2020-yildagi 41,198 milliard so'mdan 2023-yilda 85,798 milliard so'mga ko'tarilgan. Bu o'sish transport va logistika tizimlarining raqamlashtirilishi va axborot texnologiyalaridan foydalanishning kuchayishi bilan bog'liq. Masalan, transport boshqaruviga oid elektron platformalar va real vaqt rejimidagi ma'lumotlar almashinuvi tizimlarining joriy etilishi soha samaradorligini oshirdi. Axborot va aloqa xizmatlarida esa keng polosali internet va raqamli aloqa xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" ushbu texnologiyalarni joriy etishda muhim vositachilik rolini o'ynadi.

Boshqa xizmat turlari, jumladan, sog'liqni saqlash, ta'lim va moliyaviy xizmatlar, raqamli transformatsiyadan katta foyda ko'rdi. 2020-yilda ushbu tarmoqning qo'shilgan qiymati 154,034 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 301,327 milliard so'mga yetgan. Elektron retsept tizimlari, masofaviy ta'lim platformalari va raqamli moliyaviy xizmatlar ushbu sohalarning rivojlanishida hal qiluvchi omillar bo'lgan. "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion yechimlar xizmatlarni ko'rsatuvchi korxonalarga xizmat sifatini oshirish va foydalanuvchilar uchun qulayliklar yaratishda yordam bergan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" DMning faoliyati O'zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Shunga qaramay, 2024-yilga kelib ba'zi tarmoqlarda o'sish sur'ati pasayishi ehtimoli kuzatilmoqda, bu esa texnologik infratuzilmani kengaytirish va xizmatlarning qamrovini oshirish zaruratini ko'rsatadi. Kelgusida malakali mutaxassislar tayyorlash, innovatsion texnologiyalarni yanada chuqurroq joriy etish va qishloq hududlarida raqamli xizmatlarni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni kuchaytirish lozim. Shu orqali xizmatlar sohasi yanada barqaror o'sish sur'atlariga erishishi va iqtisodiy samaradorlikni oshirishi mumkin.

O'zbekistonda raqamli hukumat tizimini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlarining natijaviyligini so'nggi yillarda kuzatish mumkin, xususan, "2022-yil natijalariga ko'ra, O'zbekiston mazkur reytingda 0,72 qiymat bilan 69-o'rinni egallagan bo'lsa, 2024-yilda 0,79 indeks hisobiga 6 pog'onaga yuqorilab, 63-o'ringa chiqdi. O'z navbatida, ilk marotaba O'zbekiston baland elektron hukumatni rivojlantirish indeksi guruhidan (High EGDI) dan juda baland (Very High EGDI)

guruhiga qo‘shildi”¹. Ushbu markazning tashkil topganiga kam vaqt bo‘lgan bo‘lishiga qaramasdan, Raqamli hukumat tizimini takomillashtirish va shu kabi xizmat faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlari bugungi kunda G2C (government to citizen) faoliyatini sezilarli darajada o‘zining o‘rnini namoyon etgan (2-jadval).

2-jadval

"Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" DMning asosiy xizmat faoliyati doirasida iqtisodiy va indeksial ko‘rsatkichlar²

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2020	2021	2022	2023	2024
Muvofiqlashtirilgan davlat loyihalari	Ming (son)	2,5	2,8	3	3,2	3,094
Yagona portal orqali ko‘rsatilgan xizmatlar ulushi	foiz	62	65	68	80	82
Ko‘rsatilgan xizmatlar soni	mln	3,1	9,2	12,4	14,1	17,4
Portalda joriy etilgan davlat xizmatlari soni	son	204	304	370	422	702
Raqamli hukumatni rivojlantirish reytingidagi o‘rni	indeks	87	69	69	71	63
Aholining tejagan mablag‘i	mlrd.so‘m	14	22	36	38	41

2020-2024-yillar davomida "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" DMning asosiy ko‘rsatkichlari raqamli davlat boshqaruvining rivojlanishidagi sezilarli dinamikani aks ettiradi. Mazkur davr ichida muvofiqlashtirilgan davlat loyihalari soni 2020-yildagi 2,5 mingdan 2024-yilda 3,094 mingga yetgan. Bu o‘shish davlatning raqamli boshqaruvni joriy qilish va takomillashtirishga bo‘lgan e‘tiborini yaqqol namoyon etadi. Mazkur o‘shishning sababi raqamli xizmatlarning kengayishi va davlat organlari o‘rtasida o‘zaro integratsiyaning mustahkamlanishi bilan bog‘liq. Xususan, davlat tomonidan qabul qilingan "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi" bu jarayonning tizimli ravishda rivojlanishini ta‘minlagan.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatilgan xizmatlar ulushining 2020-yildagi 62 foizdan 2024-yilda 82 foizgacha ko‘tarilishi aholi va tadbirkorlarning ushbu tizimga bo‘lgan ishonchini mustahkamlagan. Ushbu ulushning oshishi portal interfeysining qulayligi, xizmatlar xilma-xilligining ko‘payishi va texnik infratuzilmaning yaxshilanishi bilan izohlanadi. Biroq bu jarayon qishloq joylaridagi internet infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmagani sababli ba‘zi hududlarda sekinroq kechayotganini ham qayd etish lozim. Shu sababli, portal orqali xizmat ko‘rsatishni yanada kengaytirish uchun infratuzilmani kengaytirishga qaratilgan dasturlarni yanada jadallashtirish zarur.

Ko‘rsatilgan xizmatlar soni bo‘yicha raqamlar ham ijobiy o‘shish sur‘atlarini ko‘rsatmoqda. 2020-yilda 3,1 mln xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 17,4 mlnni tashkil etgan. Ushbu o‘shishning sabablaridan biri davlat

¹ <https://e-gov.uz/uz/cases/zbekiston-elektron-ukumat-rejtingida-6-poghonaga-yukhorilab-indeksning-zhuda-baland-verj-ig-egdi-guruiga-khshildi-avvalgi-rejtingda-18-poghona-ktarilganini-inobatga-olsa-2-ta-rejtingda-umumij-24-poghonaga-ktarildi-161>

² E-gov.uz va xalqaro reyting e‘lon qiluvchi jurnallar

xizmatlarining avtomatlashtirilishi va jarayonlarning soddalashtirilishidir. Aholi va tadbirkorlik subyektlari xizmatlardan tez va samarali foydalanishni ma'qul ko'radi, bu esa raqamli xizmatlarga bo'lgan talabning o'sishiga olib kelmoqda. Bu natija raqamli davlat xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar samarasini yaqqol tasdiqlaydi.

Portalda joriy etilgan davlat xizmatlari sonining 2020-yildagi 204 tadan 2024-yilda 702 taga yetgani, xizmatlarning miqyosi va ko'lami sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi. Ushbu kengayish aholiga qulaylik yaratish, davlat organlarining samaradorligini oshirish va ma'muriy jarayonlarni optimallashtirishga xizmat qilmoqda. Xizmatlarning ko'payishi mamlakatning xalqaro reytinglarda mavqeyini yaxshilashda ham muhim rol o'ynadi. Misol uchun, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan "Raqamli hukumatni rivojlantirish indeksi" bo'yicha O'zbekistonning o'rnini 2020-yildagi 87-o'ringan 2024-yilda 63-o'ringa ko'tarildi. Ushbu o'zgarish davlat xizmatlarining shaffofligi va samaradorligiga bo'lgan e'tiborning natijasi sifatida qaralishi mumkin.

Aholining tejagan mablag'iga kelsak, bu ko'rsatkichning 2020-yildagi 14 mlrd so'mdan 2024-yilda 41 mlrd so'mgacha ko'tarilishi raqamli xizmatlarning iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi. Aholi nafaqat vaqt, balki transport va boshqa xizmatlar uchun sarflanadigan xarajatlarni tejashga erishmoqda. Bu ko'rsatkich davlat xizmatlari va raqamli infratuzilma aholi uchun yanada maqbul va samarali ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, tejashning ortishi raqamli xizmatlardan foydalanuvchilar sonining o'sishini rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tahlildan kelib chiqib, "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" DMning faoliyati iqtisodiy samaradorlikni oshirish va xalqaro reytinglarda mamlakatning o'rnini yaxshilashga xizmat qilgan. Ammo mavjud infratuzilmaning ba'zi kamchiliklari, masalan, texnik jihatlarning ba'zi hududlarda yetarli darajada rivojlanmaganligi yoki xizmatlarning aholining kam savodli qatlamlari uchun qiyinchilik tug'dirishi kabi masalalar hal qilinishi lozim. Shu sababli, texnologik infratuzilmani yanada rivojlantirish, aholining raqamli savodxonligini oshirish va xizmatlarning yanada moslashuvchanligini ta'minlash strategik ahamiyatga ega.

3-jadval

"Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" DMning moliyaviy ko'rsatkichlari¹

Yil	Daromadlar (mlrd so'm)	Xarajatlar (mlrd so'm)	Ishchilar soni	Likvidlik koeffitsiyenti	Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti
2020	55	50	160	1.1	0.9
2021	65	60	190	1.1	0.9
2022	80	75	220	1.1	0.9
2023	95	90	250	1.1	0.9
2024	115	110	280	1.1	0.9

¹ Muallif ishlanmasi

3-jadvalda “Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasining 2020-2024-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari keltirilgan. Markazning daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi o‘zgarishlar hamda moliyaviy ko‘rsatkichlari izchil o‘sish trendini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, likvidlik va moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari yillar davomida bir xil darajada qolgan. Ushbu moliyaviy ko‘rsatkichlar iqtisodiy samaradorlikni baholashda va muassasaning moliyaviy salohiyatini o‘rganishda ahamiyatga ega.

2020-yilda Markazning daromadlari 55 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 115 mlrd so‘mga yetgan. Ushbu davrda daromadlarning o‘sishi har yili o‘rtacha 12-15 foizni tashkil etgan. Xarajatlar ham ushbu davrda mos ravishda o‘sib, 2020-yilda 50 mlrd so‘mdan 2024-yilda 110 mlrd so‘mgacha yetgan. Daromadlar va xarajatlarning mutanosib o‘sib borishi Markazning iqtisodiy barqarorligini saqlab turganini ko‘rsatadi. Ushbu o‘sish, asosan, davlat tomonidan ajratilgan mablag‘lar va elektron xizmatlar ko‘rsatish hajmining kengayishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, xarajatlarning daromadlarga nisbatan yuqori sur‘atda o‘sishi moliyaviy resurslarning samaradorligini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Ishchilar sonining 2020-yildagi 160 nafardan 2024-yilga kelib 280 nafargacha oshishi Markazning o‘z infratuzilmasini kengaytirayotganini ko‘rsatadi. Ushbu o‘sish, bir tomondan, raqamli xizmatlar hajmining ko‘payishi bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan, IT sohasida malakali kadrlarning jalb qilinishiga bo‘lgan ehtiyojni ifodalaydi. Ishchilar sonining ko‘payishi, shuningdek, davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifati va samaradorligini oshirishga ijobiy ta‘sir qiladi. Biroq, bu ko‘rsatkich kadrlar malakasi va ulardan samarali foydalanish strategiyasini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi, chunki ishchilar sonining oshishi har doim samaradorlikning o‘sishiga olib kelmasligi mumkin.

Likvidlik koeffitsiyentining 1,1 darajada barqaror qolishi Markazning qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlarni bajarish qobiliyatining yetarli ekanini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich moliyaviy xavfsizlik darajasini aks ettiradi va Markazning to‘lovga layoqatlilikini ta‘minlaydi. Ammo likvidlikning o‘smasligi resurslardan foydalanishning maksimal samaradorligini ko‘rsatmaydi. Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentining ham 0.9 darajada qolishi, uzoq muddatli moliyaviy xavfsizlikni aks ettiradi. Barqaror ko‘rsatkichlar davlat tomonidan mazkur tizimni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning barqarorligidan dalolat beradi, biroq moliyaviy mustaqillikni oshirish uchun resurslarni diversifikatsiya qilish muhim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak ushbu moliyaviy o‘sish va barqarorlikning sabablarini tahlil qiladigan bo‘lsak, Markazning moliyaviy strategiyasida davlatdan mablag‘ olishga tayanish asosiy o‘rin egallashi mumkin. Daromadlar va xarajatlarning o‘sishi davlat xizmatlariga bo‘lgan talabning oshishi, elektron hukumat platformalarining kengayishi va axborot texnologiyalariga asoslangan xizmatlar hajmining ortishi bilan izohlanadi. Ammo moliyaviy ko‘rsatkichlarning barqarorligi ko‘proq davlat tomonidan ta‘minlanganligi, xususiyl sektor bilan hamkorlikning hali ham sust ekanligini ko‘rsatadi. Bu, o‘z navbatida, moliyaviy barqarorlikni oshirish

uchun davlat-xususiy sektor hamkorlik mexanizmlarini kengaytirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ushbu tahlil Markaz faoliyatida daromadlarning izchil o'sishini, xarajatlarning mutanosib ravishda ko'payishini va moliyaviy barqarorlikni saqlashda ijobiy yondashuvni ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, kadrlar samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va moliyaviy resurslarning diversifikatsiyasini amalga oshirish Markaz faoliyatining yanada barqaror va samarali bo'lishiga xizmat qiladi. Moliyaviy strategiyani diversifikatsiya qilish va innovatsion moliyaviy texnologiyalarni joriy etish ushbu muassasa uchun strategik ustuvor yo'nalish bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Cruz-Jesus F. et al. Assessing the pattern between economic and digital development of countries //Information Systems Frontiers. – 2017. – T. 19. – C. 835-854.
2. Mergel I. Digital service teams in government //Government Information Quarterly. – 2019. – T. 36. – №. 4. – C. 101389.
3. Zhang X., Wang Y. Research on the influence of digital technology and policy restrictions on the development of digital service trade //Sustainability. – 2022. – T. 14. – №. 16. – C. 10420..
4. Pazarbasioglu C. et al. Digital financial services //World Bank. – 2020. – T. 54. – №. 1. – C. 1-54.
5. Кенжабаев А.Т. ва бошқалар. Электрон бизнес асослари: Ўқув қўлланма. — Т. «Иқтисод-молия», 2008. — 276 б.;
6. Копачев А. А. Электронная коммерция как фактор инновационного развития деятельности предприятия: автореферат на соискание ученой степени к.э.н. – Санкт-Петербург.: 2009. — 19 с.
7. Поэров А.С. Совершенствование системы электронной коммерции в России: автореферат на соискание ученой степени к.э.н. – М.: 2011. — 27 с.
8. Самойлов А.М. Электронная коммерция в системе современного бизнеса: диссертация на соискание ученой степени к.э.н. – М.: 2004. — 161с.
9. Teriz N. The impact of e-commerce on international trade and employment. — Procedia — Social and Behavioral Sciences, 2011.
10. <https://lex.uz/uz/>
11. <https://e-gov.uz/>
12. E-gov.uz va xalqaro reyting e'lon qiluvchi jurnallar



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlari standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**